

“KELINLAR QO‘ZG‘OLONI” KOMEDIYASIDA STILISTIK VOSITALARNING QO‘LLANILISHI

Axmadova Xonzoda Sotiboldi qizi

Navoiy davlat universiteti

Ingliz tili va adabiyoti II bosqich magistranti

Akhmadova Khonzoda

Navoi State University

English language and literature

2nd year Master student

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasidagi stilistik vositalarni tizimli tahlil qiladi. Tanlab olingan sahna va qahramonlar nutqlarini yaqin o‘qish orqali maqollar, xalqona iboralar, metafora, o‘xshatish, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, personifikatsiya va parallelizm kabi leksik-stilistik vositalarning rolini aniqlab, tiliy normalar, milliy qadriyatlar, madaniyat va hazil-huzulga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Xulosaga ko‘ra, maqollar va idiomalar milliy ruhni mustahkamlab, metafora hamda metonimiya dramatik va hissiy yukni kuchaytiradi. Stilistik vositalar asarning doimiy ommaligi va kommunikativ qudratini belgilovchi markaziy omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: maqol, xalq iborasi, metafora, o‘xshatish, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, personifikatsiya, parallelizm, O‘zbek adabiy stilistikasi

Abstract. This study provides a structured analysis of stylistic devices used in Said Ahmad’s Uzbek comedy “Kelinlar qo‘zg‘oloni”. Through close reading of selected scenes and dialogues, the analysis identifies lexico-stylistic tools such as proverbs, folk idioms, metaphors, similes, metonymy, synecdoche, irony, personification and parallelism and examines their functions in shaping linguistic norms, national values, culture and humor. The findings show that proverbs and idioms anchor the text in national spirit, while metaphor and metonymy amplify dramatic and affective impact.

The conclusion argues that stylistic devices are central to the work's enduring popularity and communicative power.

Key words: proverb, idiom, metaphor, simile, metonymy, synecdoche, irony, personification, parallelism, uzbek literary stylistics

Аннотация. Настоящее исследование предоставляет структурированный анализ стилистических средств, применяемых в узбекской комедии Саида Ахмада «Келинлар кўзғолони». На основе близкого чтения выбранных сцен и речей персонажей анализ выделяет лексико-стилистические инструменты: пословицы, народные идиомы, метафоры, сравнения, мономия, синекдоха, ирония, персонификация и параллелизм, и исследует их функции в формировании языковых норм, национальных ценностей, культуры и юмора. Результаты показывают, что пословицы и идиомы закрепляют текст в национальном духе, в то время как метафора и мономия усиливают драматическое и эмоциональное воздействие. В заключение аргументируется, что стилистические приемы играют ключевую роль в устойчивой популярности и коммуникативной мощи произведения.

Ключевые слова: пословица, идиома, метафора, сравнение, мономия, синекдоха, ирония, персонификация, параллелизм, узбекская литературная стилистика

O'zbek adabiyotida kulgi janri har doim jamiyatdagi illatlarni fosh etish, milliy qadriyatlarni ifoda etish va ijtimoiy o'zgarishlarga munosabat bildirishda muhim vosita bo'lib kelgan. Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasi ham ana shunday asarlardan biridir. Mazkur asar xalq orasida mashhurligini yo'qotmagan bo'lib, unda o'zbek oilalarining ichki muammolari, kelin-kuyov, qaynona va boshqa qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlar kulgili, ammo chuqur ma'noga ega sahnalar orqali tasvirlanadi. Asarda ishlatilgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a va boshqa stilistik vositalar nafaqat yumor manbai, balki jamiyat hayotining o'ziga xos tasviriy vositalaridir.¹ Said Ahmad — o'zbek adabiyotining barcha janrlarida samarali ijod qilgan

¹ G'anieva S. XX asr o'zbek dramaturgiyasi va uning ijtimoiy-badiiy qimmati // Filologiya masalalari. – 2008. – №2. – B. 40–47.

yirik adiblardan biri bo‘lib, uning ayniqsa “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi hanuzgacha mashhurligini yo‘qotmagan va xalq orasida sevimli asar sifatida e’tirof etib kelinmoqda. Mazkur komediyada muallif turli obrazlar orqali o‘zbek xalqining tili, milliy qadriyatlari va madaniyatini yorqin tasvirlab beradi. Asarning keng omma qalbidan chuqur joy olishi va yillar davomida dolzarb bo‘lib kelishining eng asosiy sababi — unda stilistik vositalarning turli shakllari ustalik bilan qo‘llanganidir.² Ushbu tadqiqotda “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi stilistik tahlil asosida o‘rganiladi hamda ushbu maqolada “Kelinlar qo‘zg‘oloni”dagi stilistik vositalar lingvopoetik jihatdan tahlil qilinib, ularning badiiy-estetik funksiyalari yoritiladi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini “lingvopoetik tahlil” tashkil etadi. Tadqiqotning bosh maqsadi – “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asarida qo‘llangan uslubiy birliklarni aniqlash, ularning “semantik, pragmatik va estetik funksiyalarini” ochish hamda badiiy matnning umumiy g‘oya va kompozitsiyasiga qanday xizmat qilayotganini yoritishdan iboratdir.

1. Tadqiqotning nazariy asoslari:

Tahlilda tilshunoslikning “stilistika, lingvopoetika, matn lingvistikasi” kabi bo‘limlariga oid nazariy qarashlar hamda adabiyotshunoslikdagi “obrazlar tahlili, xalqona nutq vositalarining badiiy funksiyasi” haqidagi ilmiy qarashlar tayanch bo‘ldi. Shu bois, metodologiya tilshunoslik va adabiyotshunoslik yondashuvlarining integratsiyasiga asoslanadi.

2. Qo‘llangan metodlar va ularning vazifalari

Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- “Deskriptiv tahlil” – matndan maqol, matal, frazeologik birlik va xalqona iboralarni aniqlash, ularni turkumlash va tavsiflash uchun qo‘llandi.
- “Kontekstual tahlil”– aniqlangan birliklarning qahramon nutqidagi vazifasi va ma’no yukini ochish, ularning dramatik vaziyatdagi funksiyasini tushuntirish uchun qo‘llandi.
- “Qiyosiy tahlil” – turli obrazlar nutqida uslubiy birliklarning qo‘llanish chastotasi, ta’sirchanlik darajasi hamda badiiy-estetik vazifasini taqqoslash maqsadida ishlatildi.

² Qodirov S. Said Ahmad ijodida kulgi va hajvning badiiy xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2015. – №4. – B. 55–62.

3. Tadqiqot obyekti va material

Tadqiqot obyekti sifatida Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi tanlandi. Asarning matni lingvopoetik tahlil uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Qahramonlarning nutqida uchraydigan “maqol-matal, xalqona iboralar, stilistik figura va tasviriy vositalar” tadqiqot material sifatida tanlab olindi.

4. Tadqiqot yondashuvi

Metodologiya “kontekstual yondashuv”ga tayandi. Har bir uslubiy birlik alohida emas, balki “sahna voqealari, qahramon xarakteri va dramatik konflikt” bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganildi. Shu orqali uslubiy vositalarning nafaqat til birliklari, balki “badiiy-estetik yuklama”ga ega element sifatidagi xususiyatlari yoritildi.

5. Metodologiyaning ahamiyati

Ushbu metodologik yondashuv “Kelinlar qo‘zg‘oloni”da qahramonlarning o‘zaro muloqoti, xalqona nutqning komediyaviy effekt yaratishdagi roli hamda maqol-matal va iboralarning “milliy madaniy qadriyatlarni aks ettirishdagi funksiyasi”ni ochib berishga imkon berdi. Shuningdek, lingvopoetik tahlil asar matnini faqat til darajasida emas, balki “madaniy, ijtimoiy va estetik nuqtai nazardan ham” tushuntirish imkonini yaratdi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan lingvopoetik tahlil shuni ko‘rsatdiki, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi tilida stilistik vositalar turli darajada qo‘llangan bo‘lib, ular asarning badiiy-estetik qiymatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Eng ko‘p qo‘llangan uslublar sifatida metafora, o‘xshatish va metonimiya alohida ajralib turadi va bu quyidagi tahlillar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi:

Leksik-stilistik vositalar. Asarning milliy uyg‘unligini boyitish maqsadida turli obrazlar nutqlarida adib o‘zbek xalq maqollari, matallaridan foydalanadi. Maqollar asarga xalqona ruh bag‘ishlaydi va milliy ruh uyg‘otadi. Masalan, 1. “*Kelinning ko‘zi qaynona qo‘lida*”.³ Maqol Farmonbib tomonidan keliniga uning qarorlari, kundalik turmushi, mehnati va dam olishi, xullas, butun hayoti uning izmi ostida ekanligini uqtirish uchun aytilgan. Bundan tashqari, *ko‘zi* so‘zida ko‘z orqali barcha harakatlar

³ Ahmad S. *Kelinlar qo‘zg‘oloni*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – B. 5

nazarda tutilayotganligi sababli ushbu parchada *sinekdoxa* qo'llanilgan. Shu bilan birga, *qaynona qo'lida* deyish bilan qaynonaning hukmi, boshchiligi nazarda tutilyapti. Boshliqlik vazifasi qo'l orqali anglashilishi *metonimiya* hisoblanadi.

2. "*Er-xotin, it-mushuk.*"⁴ Ushbu maqol katta kelin Sotti tomonidan aytilgan bo'lib, ovsini va uning turmush o'rtog'ini to'xtovsiz janjal hamda tushunmovchiliklarini, xafagarchilik, ginalarini ochib berish uchun aytilgan. Er va va uning ayoli xuddi it va mushuk kabi bir-birini yomon ko'radi, ko'rishsa janjallashadi ma'nosida *metafora* ishlatilgan.

3. "*Qovoqdek boshini qashima*".⁵ Maqol shevaga xos bo'lgan so'zlardan olingan bo'lib, bu usul bilan muallif o'quvchini o'ylashga va til birliklarini tushunishga undaydi. Maqolda "*Bema'ni gaplarni gapirma*" ma'nosida boshini qashima so'zi ishlatilgan. Boshini qovoqqa qiyoslash esa *o'xshatish* san'atidan dalolat beradi.

4. "*Kattakon bo'lsang ham aqling chaqmoqtoshday*".⁶ Kimningdir ustidan aqli chaqmoqtoshday deb aytish, odamning yoshiga mos bo'lmagan xatti-harakatlari, fe'l-atvori, gap-so'zi va qiliqlari bo'lishini anglatadi. Aqlini *chaqmoqtoshga* qiyoslash esa *o'xshatish* ekanligini ifodalaydi.

5. "*Bor tovog'im, kel tovog'im*".⁷ Maqol kelinlardan biri Bashorat tomonidan aytilgan bo'lib, o'zbek xalqi oldi-berdisini tushuntirish maqsadida qo'llanilgan. Ushbu parchada jismning harakatlanishi *personifikatsiya* bilan sifatlangan bo'lsa, jism orqali urf-odatning ifodalanishi *metonimiya* usulidan xabar beradi.

Maqollardan tashqari, ushbu komediya frazeologik birliklar hamda uslubi vositalar ishlatilgan sintaktik, grammatik va pragmatik jihatdan mukammal gaplardan tashkil topgan. Quyida komediyaning sahnalari hamda obrazlar nutqlarini uslubi vositalar kesimida ko'rib chiq amiz.

"Otang rahmatli erkaklikni o'rniga qo'yardi. Rahmatlini hamma Azim she'r derdi. Yursa yer titrardi. Yo'talsa, daraxtdagi qushlar parr etib uchib ketardi. Aksa ursa, osmonda momaqaldiraq bo'lib, chaqmoq chaqardi. Rahmatlik xotin kishini

⁴ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 7

⁵ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 15

⁶ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 29

⁷ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 14

gapini gap demasdi.(ko`ziga yosh olib) Shundoq odam tuproqda yotibdi. (birdan o`ziga kelib) Kenja kelin qani? Nega ko`rinmaydi?

Asqar: Shunchaa gap bekorga ketdi-ya.

Sotti: Yangi kelin-kuyov misoli Layli-Majnun... ”⁸

Parchada foydalanilgan uslubiy vositalar asarni yanada boyitib turganligi yaqqol ko`zga tashlanadi: “*Azim she`r derdi*”- insonni she`rga qiyoslash orqali muallif Farmonbibining vafot etgan turmush o`rtogi qanchalik kuchli, zabardast va ilg`or bo`lganligini isbotlab bermoqchi, bundan kelib chiqadiki, *metafora* ushbu gapda o`rinli qo`llanilgan. “*Yursa yer titrardi. Yo`talsa, daraxtdagi qushlar parr etib uchib ketardi. Aksa ursa, osmonda momaqalldiroq bo`lib, chaqmoq chaqardi.*”⁹-_insonning qadam tempti yurganda yer titragulik darajada emas shuning uchun parchaning ushbu qismdagi Azim she`rga nisbatan berilgan sifatlar *mubolag`a* vositasida boyitilgan va o`quvchini diqqatini yanada oshirishga harakat qilingan. Keyingi jumlada keladigan “*tuproqda yotibdi*” iborasida esa kishining vafot etgani va qabrga ko`milgani, hech kimni mensimagan odam bo`lsa-da oxir-oqibat vafot etib, tuproq ostida qolgani haqida gap ketar ekan, ushbu jumlada *sinekdoxa* (tuproq orqali qabr nazarda tutilgan)dan foydalanilganiga guvoh bo`lamiz. Suhbatning so`nggida kenja kelin-kuyovga nisbatan berilgan sifatlar esa uslubiy vositalardan mohirona foydalanilganligi bilan bizni lol qoldiradi. “*Misoli Layli-Majnun*” jumlasidan anglashiladiki, *o`xshatish* sifati (misoli) qo`llanilishi bilan birga ularning yosh sevishganlarga o`xshatilishi *antonomaziya* ya`ni Majnun va Layli nomi qahramonlarning bir-birini chindan sevishini eslatib turuvchi uslub qo`llanilgan. Bundan tashqari, bu ibora orqali insonning ishq yo`lida chekkan azob-uqubatlari va fidoyiligi umumlashtirilgan hamda qahramonlar yosh kelin-kuyov bu zamonda bunday azob-uqubatlarsiz baxtli ekanligini ko`rsatish, kesatish maqsadida *ironiyadan* foydalanilgan.

“-Bu uy ham bir hukumat. Ha, bir mamlakat. O`z poshshosi, o`z qonuni bor.

- O`z shpioni ham bor.”¹⁰

⁸ Ahmad S. Kelinlar qo`zg`oloni. – Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1976. – B. 3

⁹ Ahmad S. Kelinlar qo`zg`oloni. – Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1976. – B. 11

¹⁰ Ahmad S. Kelinlar qo`zg`oloni. – Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1976. – B. 11

Ushbu parchada stilistik vositalar bisyor qo'llanilgan. – *“Bu uy ham bir hukumat. Ha, bir mamlakat”* aynan ushbu gapda Farmonbibi yashab turgan xonadonini mamlakat ya'ni bir davlatga qiyoslayapti. Shuning uchun ham *metafora* bu gapda juda mos ravishda qo'llanilgan. Shu bilan birga, gapning bir xil maromda o'qilishi hamda ikki gap bir xil tuzilishga ega bo'lib, mazmun jihatdan bir-birini to'ldirib turishi *parallelizmdan* darak beradi va uslub fikrning ta'sirchanligini oshiradi. Keyingi gapda poshsho so'zi hukmdorni, qonun esa tartib-qoidalarini bildiradi. Bu yerda haqiqiy davlat haqida emas, balki oila ichidagi boshqaruv haqida gap ketmoqda. Aynan ushbu uslub *metonimiya* deb ataladi. Qizig'i shundaki, yana boshqa kelinning Sottiga qarata – *“O'z shpioni ham bor.”* deya kesatq qilishi orqali *ironiya* ishlatilgan.

*“Kampir hozir dazmoldek qizib turibdi. Yaqiniga borib bo'lmaydi yaxshisi, kampir hovuridan tushguncha jindekkina o'z holiga qo'yaylik”.*¹¹

Bu parchada qo'llanilgan uslubiy vositalar matnga obrazlilik va ta'sirchanlik baxsh etib, Farmonbibining holatini yorqin tasvirlab beradi. *“Kampir hozir dazmoldek qizib turibdi”*- dek qo'shimchasi orqali qo'llanilgan *o'xshatish* vositasi jumlagi ham yumor, ham jiddiylik beradi. Navbatdagi *“Yaqiniga borib bo'lmaydi”*- nutqidan bilishimiz mumkinki, inson ta'nasi kuydiradigan darajada issiq bo'lolmasligi *mubolag'a* san'atidan darak beradi. *“jindekkina o'z holiga qo'yaylik”*- takror yana kesatish orqali *ironiya* stilistik vositasidan mohirona qo'llanilgan.

“Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak degandek... Farmon(gapini bo'lib). Maqol qo'shmay gapir. Maqol ham o'lsin, bo'lar-bo'lmasga suqulmay.

*Bashorat. Maqol so'z ko'rki, o'zingizdan qolar gap yo'q. Do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi, degandek... Tuflimning rangi o'chib, tumshug'i yalpayib ketibdi.”*¹²

Endi navbatdagi parchada nafaqat uslubiy vositalar yordamida urg'u berilgan jumlar balki maqollarning turli xillarini o'z o'rnida ishlatilayotganini ko'rishimiz mumkin. Parchada ishlatilgan maqollar:

¹¹ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 20

¹² Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 14

— *Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak;* (hayotda hamma narsa bir-biridan muhim. Inson faqat bitta narsaga emas, balki turli ehtiyojlarga e'tibor qaratishi kerak. Tirikchilik uchun esa ayrim insonga ham pul, ham sog'lik kerak)

—*Maqol so'z ko'rki;* (ya'ni oddiy so'zlardan foydalanib gapirishdan ko'ra maqol qo'llansa yanada tushunarliroq bo'ladi)

—*Do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi.* (bu yerda bosh hamda oyoq so'zlari *metaforik* ma'noda ishlatilgan. "*Bosh*" yaqin va aziz kishilar, "*oyoq*" esa mensimagan yoki yomon ko'radigan odamlar sifatida tasvirlangan).

"Maqol ham o'lsin, bo'lar-bo'lmasga suqulmay"— Farmonbibining ushbu gapi kesatish ma'nosida aytilgan bo'lib, aynan maqol suqulmaydi, uni sen bo'lar-bo'lmasga o'rta qo'shasan deya keliniga qarata aytayotgandek edi. Shuning uchun ushbu gapda ironiyadan foydalanilganligining guvohi bo'lamiz. *"Tuflimning rangi o'chib, tumshug'i yalpayib ketibdi"*— ushbu gapda ma'no ko'chishini tuflining tumshug'i so'zida ko'rishimiz mumkin. *Metafora* yana bir bor ustalik bilan qo'llanilgan.

*"Yegan og'iz uyalar, "Qudachilik-ming yilchilik", o'zingiz bilasiz, bittayu-bitta qizim. Ko'zimning oqu qorasi, haligi qudalarimni bir chaqirsam degandim."*¹³

Yuqorida keltirilgan parcha orqali Said Ahmad uslubi vositalar bilan maqollarni milliy ruhga qanchalik mohirona uyg'unlashtirganining dalilidir. *"Yegan og'iz uyalar"* - o'zbek xalq maqoli hisoblanadi, shu bilan birga bu jumlada *metonimiya* qo'llanilganligi, og'iz orqali bajariladigan ish-harakatga nisbatan inson so'ziga sifat berilayotgani yaqqol ma'lum, shu bilan bir qatorda insonning bir tana a'zosi orqali butun odam tasvirlanishida *sinekdoxa*ning hissasi ham kattadir. *"Ko'zimning oqu qorasi"* –bu parchaning eng hayajonli gapi bo'lgani bois, obrazning nutqi yanada keng hamda chuqur ma'no egallashini anglatish maqsadida muallif *metaforadan* foydalangan.

Tadqiqot jarayonida qayd etilgan asosiy natijalar quyidagicha:


¹³ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 15

Metafora va o'xshatishlar asarda eng ko'p ishlatilgan bo'lib, umumiy stilistik vositalarning qariyb 40% ini tashkil etadi. Ular ko'pincha xalq maqollari, xalqona iboralar orqali ifodalanib, milliy ruhni kuchaytiradi.

Metonimiya – 20%. Qahramonlarning kundalik nutqida ko'proq qo'llanilib, oilaviy va ijtimoiy hayotning turli jihatlarini ramziy ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “ko'z” orqali nazorat, “qo'l” orqali hukmronlik anglatiladi.

Mubolag'a va ironiyalar – 20%. Ular kulgi yaratish, satirik ruhni kuchaytirish va ijtimoiy tanqidni ifodalashda muhim vosita sifatida ishlatilgan.

Sinekdoxa va boshqa vositalar – 20%. Xususan, “tuproq” orqali qabr nazarda tutilishi, “ko'zimning oqu qorasi” orqali mehr ifodalanishi kabi misollar sinekdoxaning samarali qo'llanilganini ko'rsatadi.



1.1.§.-diagramma. “Kelinlar qo'zg'oloni” asari stilistik tahlili.

Said Ahmad ushbu komediyasida quyidagi uslublardan samarali foydalanib asarni o'qilishi oson bo'lishiga yordam beradi:

Komedik uslub: Asarning asosiy uslubi komediyadir. Muallif o'zbek oilalaridagi kundalik hayotning kulgili tomonlarini, kelinlar va qaynonalar o'rtasidagi munosabatlardagi ziddiyatlarni, an'anaviy qarashlarning zamonaviy hayotga moslashmasligini o'ziga xos yumor bilan tasvirlaydi.¹⁴ Masalan:

“Bo'ston. Shu desangiz...

Farmon. Shu desangiz demay gapir...

Bo'ston. Xo'p bo'ladi, oyijon. Shu desangiz... ishxonamizga yangi yaponcha jemper kepti. Shundan bittagina olsam. Shu desangiz... iltimos, shundan bittasini olib bering. Jon, oyijon, iltimos.

Farmon. Tavba, yaponchasini kiygilari kepti. O'zimizniki teshib chiqadimi? Bozorda ivirsib yuradigan qalang'i-qasang'i xotinlarning egnida yaponcha jemper. O'shalarning tengi bo'ldingmi? Odamlarga hayronman, xo'rozqand chet elniki bo'lsa yalayman, deydi. Jempering hali yap-yangi, Sotti, sen mashinadan benzin quyib, jemperini yuvib ber. Besh- o'n kun hidi kelsa ham o'zi ulgur top-toza bo'ladi.”¹⁵

Xalq og'zaki ijodi elementlari: Asarda xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan maqollar, matallar, topishmoqlar, latifalar, ertak unsurlari keng qo'llaniladi. Bu asar tilining boy va rang-barang bo'lishiga, o'quvchiga ta'sirchanlik kuchining oshishiga xizmat qiladi. Masalan: *“Yuzga aytganni zahri yo'q. Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim, qo'ying, oyi. Ziqnaligingiz jonimga tegdi. Ro'zg'orimni bo'lak qilib bering yoki meni javobimni bering.”¹⁶*

Realistik tasvir: Asar o'zbek qishloqlaridagi hayotni, odamlarning turmush tarzini, urf-odatlarini, an'analarini realistik tarzda tasvirlaydi. Muallif qahramonlarning xarakterlarini, ularning o'zaro munosabatlarini, kundalik hayotdagi voqea-hodisalarni ishonarli tarzda tasvirlashga erishgan. *“ U yog'i xotin poshshoning yurti. Bu poshsholikning o'z qonuni, o'z urf-odatlari bor. Ajablanmang. Poshsho xotinning*

¹⁴ . Karimov N. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 280

¹⁵ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 12

¹⁶ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 14

yetti og'li, yetti kelini, qirq bir nevarasi bor. Jami bo'lib, bu uyda ellik olti kishi turadi. Kampir Gorispolkomga borib, janjal qilaverib, oxiri shu do'konni ochtirdi. Har kuni bu uydan bir qop jag'i ayrilgan, poshnasi ko'chgan, yirtilgan etik deysizmi, tufli deysizmi, tapochka deysizmi, chiqaveradi."¹⁷

Satirik elementlar: Asarda o'zbek jamiyatidagi ba'zi illatlar, jumladan, ayollarning huquqlari poymol qilinishi, an'anaviy qarashlarning zamonaviy hayotga moslashmasligi, mansabdorlarning o'zboshimchaligi satirik tarzda tanqid qilinadi.¹⁸

Masalan: *"Nigora. Bu qaysi xonlik zamoni? Qaysi feodalning uyi?"*

Asqar. Bu yog'I yomon bo'ldi. Kelin siyosiy tomondan oldi.

Nigora. Gorkomga boraman. Arz qilaman. Toshkentdek shahri azimda bir feodal oila bor, tekshirib chora ko'riylar deyman."¹⁹

Til va uslub xususiyatlari: Asar tili sodda va ravon. Muallif o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanadi, qahramonlarning nutqi ularning xarakteriga mos tarzda yaratilgan. Asarda dialoglar muhim o'rin tutadi, ular qahramonlarning o'zaro munosabatlarini, ularning ichki kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan: *"Ma'mur. Obbo, siz-ey. Doim shunaqa suv qo'shilmagan gaplarni topasiz.*

Mahkam. Ha, endi akasi... Ko'pni ko'rganmiz-da. Zarur bo'lganda xotiniga chap berib, aroqdan klizma qilganlarni ham ko'rganmiz."²⁰

Qahramonlar tasviri: Asarda kelinlar va qaynonalar o'rtasidagi munosabatlar, ularning xarakterlari, orzu-umidlari, kurashlari yorqin va ishonarli tarzda tasvirlangan. Har bir qahramon o'ziga xos xarakterga ega, ularning o'zaro munosabatlari asar syujetining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi: *"Farmon. Lutfi Boboyeva mening eng yaxshi ko'rgan kelinim. Unga o'zim tarbiya berganman. Mo'min, qobil, uy ishlarini o'ynab-kulib bajaradi. Hurmatimni qiladi. Pazandaligini aytmay qo'ya qolay. Lag'monni sochning tolasidek ingichka cho'zadi, chuchvarani danakdek tugadi..."*²¹

¹⁷ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 1

¹⁸ Hakimova M. Adabiyotshunoslikda badiiy asar tili va badiiy nutq uslubi// www.oriens.com. – 2022. B. 79

¹⁹ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 8

²⁰ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 10

²¹ Ahmad S. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 19

Umuman olganda, o'zbek adabiyotining yorqin durdonasi bo'lmish "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasidan uslubiy vositalarni birma-bir izlash yillar talab qiladi. Muallif o'z ishini shunchalik puxta bitirganki, asar qayta va qayta o'qilsa yangidan yangi uslubiy vositalar ko'zga tashlanib, qahramonlar nutqiga ko'rk qo'shib turadi.²² Ushbu ilmiy tadqiqot davomida izlangan hamda tahlil qilingan ushbu yuqoridagi barcha asarda qo'llanilgan uslubiy vositalar yuzasidan diagrammaga e'tibor qaratilsa, asardagi parchalarning aksariyat qismida *metafora* va *o'xshatish* ma'no ko'chishlarining qo'llanilganligining guvohi bo'lish tayin. *Metonimiya* esa keyingi o'rinda eng ko'p qo'llanilgan stilistik vositasi sifatida anglashiladi. Ushbu asar komedik janrga xos bo'lganligi uchun ham ironiya hamda mubolag'a uslubiy vositalari birgalikda 20% ma'no ko'chishlarini tashkil qilib, asarni yanada yumorga boy ko'ratishga yordam beradi. *Parallelizm*, *sinekdoxa* va boshqa turdagi ma'no ko'chishlari ushbu komediyada muhim o'rin egallash bilan birga, asar tilini oson, qiziqarli hamda tushunarli bo'lishiga yordam beradi va asarga rang-baranglikni olib kiradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasi o'zbek adabiyotida kulgi orqali jamiyat hayotidagi ijtimoiy muammolarni yoritishning eng yorqin namunalaridan biridir. Asarda qo'llangan stilistik vositalar nafaqat kulgini yuzaga chiqaradi, balki o'quvchini chuqurroq mushohada qilishga, jamiyatdagi dolzarb masalalar haqida o'ylashga undaydi.

Avvalo, metafora va o'xshatishlarning ko'pligi qahramonlar nutqini obrazli, ta'sirchan va esda qolarli qiladi. Bu vositalar orqali oddiy voqelik hayotiy bo'yoqlar bilan tasvirlanib, o'quvchi ongida yanada yorqin taassurot uyg'otadi. Masalan, "uy – hukumat" tarzidagi metafora oddiy oilaviy boshqaruvni davlat tizimi bilan qiyoslash orqali bir tomondan kulgi uyg'otsa, ikkinchi tomondan patriarxal oilaning qattiq tartib-qoidalarini tanqidiy yondashuvda ko'rsatadi. Demak, metafora bu asarda estetik va ijtimoiy vazifani birgalikda bajaradi.

²² Hayitmetov A. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001. – 165 b.

Shu bilan birga, metonimiya va sinekdoxa kabi vositalar xalqona tildan keng foydalanish imkonini beradi. “Ko‘zimning oqu qorasi” yoki “tuproq” kabi obrazlar orqali muallif qahramonlarning ruhiy kechinmalarini, mehr-muhabbat yoki yo‘qotish tuyg‘usini ixcham va ta’sirchan ifoda qiladi. Bunday vositalar asarda xalqona ruhni kuchaytirib, milliy madaniyatga xos tasviriy uslublarni boyitadi.

Maqol va matallarning keng qo‘llanilishi ham alohida e’tiborga loyiq. Ular qahramonlarning xarakterini ochib berish, ularning dunyoqarashini ifodalash va milliy mentalitetni aks ettirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, “Er-xotin, it-mushuk” maqoli oila ichidagi ziddiyatlarni keskin, ammo xalqona tarzda ko‘rsatadi. Bu holat Said Ahmadning xalq og‘zaki ijodi boyligidan ustalik bilan foydalanganidan dalolat beradi.

Ironiya va mubolag‘a esa komediyaning kulgi va satirik ruhini kuchaytiradi. Mubolag‘a qahramonlarning kuch-qudratini yoki ularning xatti-harakatlarini oshirib ko‘rsatish orqali kulgi uyg‘otadi, ironik ifodalar esa ortiqcha jiddiylikni yumshatib, voqealarga tanqidiy munosabat beradi. Shunday qilib, kulgi ortida jamiyatdagi adolatsizlik, patriarxal stereotiplar va oilaviy nizolar tanqid qilinadi.²³

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi o‘zbek milliy komediyachiligida alohida o‘rin tutadi. Undagi stilistik vositalar xalqning til boyligi, og‘zaki ijodi va estetik qarashlarini mujassamlashtirgan holda, bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Demak, ushbu asar tilidagi stilistik vositalar nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy hayotini chuqur anglash uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni komediyasi mukammal usulda yozilgan o‘zbek noyob asarlaridan biri bo‘lib, uning stilistik tahlili izlanuvchidan ko‘p vaqt hamda e’tibor talab qiladi. Yuqorida keltirilgan uslubiy tahlillar esa bu komediya ustida ishlanishi kerak bo‘lgan tadqiqotning bir qismi hisoblanadi. Mazkur uslubiy tahlil natijalarining nazariy ahamiyati quyidagilardan iborat:

²³ Jo‘rayev T. O‘zbek adabiyotida komediya janri va uning taraqqiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.

- ushbu tadqiqot o‘zbek komediyachiligida stilistik vositalarning qo‘llanishini lingvopoetik jihatdan yoritib berdi;
- asardagi metafora, metonimiya, sinekdoxa va boshqa usullarni ilmiy tasnif qilish orqali stilistik vositalarning ijodiy va badiiy funksiyalari aniqlashtirildi;
- maqola adabiyotshunoslik va tilshunoslikdagi “komediya tili” tushunchasini kengaytirib, kulgi vositalarining ilmiy-nazariy asosini kuchaytirdi.
- o‘zbek komediyasining jahon adabiyoti bilan umumiy jihatlari va farqlari yuzasidan qiyosiy tadqiqotlarga nazariy zamin yaratdi.

Amaliy ahamiyati:

- ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek adabiyoti bo‘yicha darslik, qo‘llanma va o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlashda foydalanilishi mumkin;
- “Kelinlar qo‘zg‘oloni”dagi stilistik vositalarning tahlili talabalarga matnni lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishda metodik manba bo‘lib xizmat qiladi;
- natijalar adabiyot darslarida, ijodiy yozuv mashg‘ulotlarida, shuningdek, tarjima amaliyotida ham qo‘llanishi mumkin. Chunki maqol va matallarni tarjima qilishda ularning stilistik yukini to‘g‘ri anglash muhimdir;
- maqolada olingan natijalar zamonaviy sahna asarlari va kino ssenariylarida milliy ruhni kuchaytirish uchun uslubiy manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Shunday qilib, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” nafaqat o‘zbek komediyasining yorqin namunasi, balki tilshunoslik va adabiyotshunoslikda stilistik vositalarni chuqur o‘rganish uchun ilmiy-amaliy manba hamdir. Mazkur tadqiqot milliy adabiyotimizni jahon miqyosida o‘rganishga xizmat qiladigan qimmatli ilmiy xulosalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmad S. Kelinlar qo‘zg‘oloni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – 132 b.

2. Hayitmetov A. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001. – 165 b.
3. Jo'rayev T. O'zbek adabiyotida komediya janri va uning taraqqiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
4. Qodirov S. Said Ahmad ijodida kulgi va hajvning badiiy xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2015. – №4. – B. 55–62.
5. Karimov N. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 280 b.
6. G'anieva S. XX asr o'zbek dramaturgiyasi va uning ijtimoiy-badiiy qimmati // Filologiya masalalari. – 2008. – №2. – B. 40–47.
7. Hakimova M. Adabiyotshunoslikda badiiy asar tili va badiiy nutq uslubi// www.oriens.com. – 2022. B. 79